



XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA NOQONUNIY MIGRATSIYAGA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Alimboyeva Xosiyat Maxsud qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Nukus, O'zbekiston.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19677322>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 18-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 21-aprel 2026 yil

KEY WORDS

liability for organizing illegal migration, organization of illegal migration, illegal import (export) of migrants, liability of foreign states for illegal migration.

ABSTRACT

Mazkur maqolada noqonuniy migratsiya bo'yicha jamiyat hayoting barcha jabhalari qamrab olgan holda global va murakkab muammo sifatida ko'zdan kechiramiz. Xususan, boshqa chet davlatlar bilan aloqa noqonuniy migratsiyani tashkil etish uchun javobgarlik belgilash bo'yicha keng qamrovli o'rganib boramiz. Xorijiy mamlakatlarning noqonuniy migratsiyani tashkil etish uchun jinoiy javobgarlikka tortishning ijobiy tajribasini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasidagi bir qator qonunchiliklarni ham ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda dunyoda aholi migratsiyasi jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan global va murakkab hodisa sifatida namoyon bo'lib bormoqda. Xususan, dunyoning turli mintaqalaridagi geosiyosiy vaziyatning yomonlashuvi migratsiya oqimlarining oshishiga sabab bo'lmoqda va mazkur jarayon o'z navbatida aksariyat davlatlarning milliy xavfsizligiga ham xavf tug'dirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi zamonaviy dunyo hamjamiyatining kamida 218 mamlakati doimiy migratsiya jarayonlarida ishtirok etadi va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) 2030 yilga borib migratsiya oqimi 300 milliondan ortiq odamni qamrab olishi kutilishi mumkinligini qayd etadi.

Holbuki, migratsiya jarayonlari intensivligining ortishi, tabiiyki, jinoyatchilik darajasining o'sishiga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Tahlillarga ko'ra, noqonuniy migrantlar ko'pincha o'zgarlar mulkini talon-toroj qilish, nomusga tegish, giyohvand vositalari va psixotrop moddlarini noqonuniy muomalasi, hujjatlarni qalbakilashtirish, pornografik mahsulotlarni tayyorlash yoki o'tkazish kabi jinoyatlarni sodir etadilar.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi¹ 322.1-moddasida noqonuniy migratsiyani tashkil etish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning Rossiya Federatsiyasiga noqonuniy kirishini, ularning Rossiya Federatsiyasida noqonuniy bo'lishini yoki Rossiya Federatsiyasi hududidan noqonuniy tranzit o'tishini tashkil etish (ikki yilgacha ozodlikni cheklab yoki cheklamasdan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi), shuningdek, ushbu harakatlar a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh tomonidan; b) Rossiya

Federatsiyasi hududida jinoyat sodir etish maqsadida; v) shaxs o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilishi (besh yuz ming rublgacha yoki mahkumning uch yilgacha bo'lgan ish haqi yoki boshqa daromadlari miqdorida jarima solish bilan yoki usiz yetti yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ikki yilgacha muddatga ozodlikni cheklash yoki cheklashsiz bilan jazolanadi) jinoiy jazolanishi nazarda tutiladi. Shuningdek RF Jinoyat kodeksining 322.2- moddasida Rossiya Federatsiyasi fuqarosini yashash joyi yoki Rossiya Federatsiyasidagi turar joyi bo'yicha soxta ro'yxatga olish va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni Rossiya Federatsiyasida turgan joyida soxta ro'yxatga olish hamda 322.3- moddasida chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni Rossiya Federatsiyasida yashash joyi bo'yicha soxta hisobga olish uchun ham alohida javobgarlik belgilangan. Shu bilan birga *Qozog'iston* (JK 394 va 395- m.m.), *Qirg'iziston* (JK 168.m.), *Tojikiston* (JK 335-1 va 335-2-m.m.), *Turkmaniston* (JK 237-m.), *Belarus Respublikasi* (JK 371-1-m.), *Ozarbayjon* (JK 318.1-m.)¹⁰⁷, *Armaniston* (JK 470-m.), *Moldova Respublikasi* (JK 362-1- m.) va *Gruziyada* (JK 3441-m.) noqonuniy migratsiya uchun javobgarlik mavjud.

Xususan, *Qozog'iston Respublikasining* 2014 yil 3 iyuldagi yangi Jinoyat kodeksining «Boshqaruv tartibiga qarshi jinoiy huquqbuzarliklar» deb nomlangan 16-bobida Qozog'iston Respublikasi davlat chegarasini qasddan noqonuniy kesib o'tish (392-m.), Noqonuniy migratsiyani tashkil etish (394-m.) va Qozog'iston Respublikasida horijiy ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish qoidalarini takroran buzish (395-m.) kabi qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 394-moddasi birinchi qismiga ko'ra, transport vositalari yoki soxta hujjatlar, turar joy yoki boshqa binolar berish, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga Qozog'iston Respublikasi hududiga noqonuniy kirish, chiqish, harakatlanish bo'yicha boshqa xizmatlar ko'rsatish orqali noqonuniy migratsiyani tashkil etish, ikkinchi qismida o'sha qilmishlar o'z xizmat maqeidan foydalangan holda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa hamda uchinchisi qismida esa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmish jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shu bilan birga Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 395-moddasiga asosan Qozog'iston Respublikasi hududida bo'lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni vakolatli organning tegishli ruxsatisiz ishga qabul qilish, shuningdek Qozog'iston Respublikasida chet el ishchi kuchidan foydalanish qoidalarini takroran buzish uchun ish beruvchilar jinoiy javobgarligini nazarda tutadi. Qozog'iston 2019 yil 21 yanvardagi Qonuni bilan majburiy chiqarib yuborish haqidagi qarorni bajarmaslik jinoyati uchun javobgarlikni dekriminilizatsiya qilgan.

Qirg'iziston Respublikasining 2021 yil 28 oktabrdagi Jinoyat kodeksi 168- moddasida «Noqonuniy migratsiyani tashkil etish, migrantlarni noqonuniy olib kirish (olib chiqish)» uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismiga ko'ra, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan migrantlarni noqonuniy olib kirish, olib chiqishni tashkil etish yoki ularga transport vositalari yoki qalbaki hujjatlar, turar joy yoki boshqa binolarni taqdim etish, shuningdek fuqarolarga manfaat olish maqsadida yoki usiz Qirg'iziston Respublikasiga qonunga xilof ravishda kirish, chiqish, harakatlanish yoki Qirg'iziston Respublikasi hududidi orqali tranzit tarzda o'tish uchun boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismiga ko'ra esa, ushbu harakatlar 1) bolaga nisbatan; 2) bir guruh shaxslar tomonidan; 3) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til

biriktirib; 4) o'z mansab mavqeidan foydalangan holda; 5) aybdorga moddiy yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan; 6) ehtiyotsizlik tufayli og'ir yoki o'ta og'ir zarar yetkazish bilan; 7) uyushgan guruh tomonidan yoki 8) jinoiy uyushma tarkibida sodir etilgan bo'lsa, og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlikka sabab bo'ladi. Ammo, ushbu modda shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning tursi sifatida jinoyatning bevosita ob'ektini shaxs ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar bilan bog'laganligi biz uchun tushunarsiz holatdir. Fikrimizcha, Jinoyat kodeksiga moddalarni bunday joylashtirish noto'g'ri bo'lib, agar biz ushbu davlat qonun chiqaruvchisining mantig'ini e'tiborga olsak, ushbu normalar shaxs ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi.

Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining migratsiyaga oid bir qator jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, Jinoyat kodeksining «Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan 31-bobida Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni Tojikiston Respublikasiga qonunga xilof ravishda kirishini yoki Tojikiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda o'tishini tashkil qilish (JK 355(1)-m.) va Noqonuniy migratsiyani tashkil etish (JK 355(2)- m.) kabi qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan.

Tojikiston Respublikasi jinoyat qonunining noqonuniy migratsiya uchun javobgarlik belgilashdagi e'tiborli tomoni shundaki, unda noqonuniy migratsiyani tashkil etish chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mamlakat hududiga qonunga xilof ravishda kirishi yoki mamlakat hududi orqali tranzit tarzda o'tish qoidalarini buzgan holda tashkil etish harakatlarini emas, balki Jinoyat kodeksining 355(2)-moddasi birinchi qismida Tojikiston Respublikasi fuqarolarini chet elga noqonuniy yuborish va ishga joylashtirishni tashkil etish va ikkinchi qismida ushbu turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lmagan shaxs tomonidan migrantlarni ishga joylashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Bundan tashqari *Turkmaniston Respublikasining* 2022 yil 17 apreldagi 456- VI-son yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 237-moddasida noqonuniy migratsiyani tashkil qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning Turkmanistonga noqonuniy kirishi, Turkmaniston hududida bo'lishi, Turkmaniston hududi orqali tranzit o'tishi bo'yicha faoliyatni tashkil etish, belgilangan bazaviy hisoblash miqdorning o'ttiz baravaridan oltmish baravarigacha jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agarda ushbu qilmishlar bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki Turkmaniston hududida jinoyat sodir etish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, belgilangan bazaviy hisoblash miqdorning ellik baravaridan yuz baravarigacha jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 371¹-moddasi birinchi qismiga ko'ra, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning Belarus Respublikasiga noqonuniy kirishi, Belarus Respublikasi hududida bo'lishi, Belarus Respublikasi hududi orqali tranzit o'tishi yoki Belarus Respublikasidan chiqib ketishi bo'yicha faoliyatni tashkil etish yoki unga rahbarlik qilish yohud ko'maklashish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida esa, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan yoki shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala bilan bog'liq holda yoki takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki rasmiy vakolatlaridan foydalangan holda mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan noqonuniy migratsiyani tashkil etish, javobgarlikka sabab bo'ladi. Bundan tashqari Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining

371²- moddasida Belarus Respublikasiga kirish ta'qiqi muddatini buzish, ya'ni Belarus Respublikasidan deport yoki chiqarib yuborilgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Respublikaga kelish ta'qiqi muddati tugashidan oldin kelishi ushbu kodeksning 371-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyat belgilari bo'lmasa, javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ozarbayjon Jinoyat kodeksi 318.1-moddasida noqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismiga ko'ra, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Ozarbayjon Respublikasiga noqonuniy kelishini, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Ozarbayjon Respublikasi hududida noqonuniy qolishini, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Ozarbayjon Respublikasi hududi orqali noqonuniy tranzit tarzda o'tishini yoki shaxsning Ozarbayjon Respublikasidan noqonuniy chiqib ketishini tashkil etish hamda ushbu moddaning ikkinchi qismida esa, ushbu qilmishlar uyushgan guruh tomonidan, o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda mansabdor shaxs tomonidan, takroran va shaxslar hayoti uchun xavfli usulda sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari sifatida sposobom jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Armaniston 2022-yil 18-iyunda yangi Jinoyat kodeksini qabul qildi. Ushbu Kodeksning 470-moddasida noqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi va u «Davlat buyurtmalariga qarshi jinoyatlar» deb nomalangan 44-bobida joylashtirildi. Mazkur Kodeksning 470-moddasiga binoan, Daromad olish maqsadida chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Armaniston Respublikasiga kirishini, uning Armaniston Respublikasida bo'lishini yoki Armaniston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tishini (tashishni) mamlakatga kirish, unda bo'lish yoki tranzit tarzda o'tishning belgilangan tartibini buzgan holda tashkil etish yoxud qalbaki hujjat yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish orqali mamlakatga kirish, unda bo'lish yoki tranzit tarzda o'tish ruxsatnomasini olish, ushbu moddaning ikkinchi qismida, daromad olish maqsadida shaxsni Armaniston Respublikasidan chiqib ketishini, chet davlatga kirishini yoki chet davlatda bo'lishini tashkil etish, qonun hujjatlarida belgilangan chiqish, kirish yoki bo'lish tartibini buzgan holda yohud chiqish, kirish yoki bo'lish uchun tegishli ruxsatnomani olish maqsadida qalbaki hujjat yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish jinoiy jazolanishi nazarda tutilgan. Mazkur moddaning uchinchi qismida esa, ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar: 1) bir guruh shaxslarning oldindan til birlashtirish bo'yicha; 2) inson hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli yoki shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi sharoitlarda yoki 3) hokimiyat yoki mansab vakolatlaridan yoki ularning ta'siridan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, jinoiy jazolanishi belgilangan.

Shuningdek *Moldova* jinoyat qonunida ham shu kabi qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan. Masalan, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi 362-1- moddasida bevosita yoki bilvosita moliyaviy yoki moddiy naf olish maqsadida mazkur davlat fuqarosi yoki rezidenti hisoblanmagan shaxsni davlat hududiga noqonuniy kiritish, chiqarish, tranzit o'tkazish, bo'lishini tashkil qilish, ikkinchi qismida a) soxta rasmiy hujjatlarni tayyorlash, egalik qilish, o'tkazish yoki ulardan foydalanish orqali; b) noqonuniy yo'llar bilan yoki yolg'on ma'lumot taqdim etish yo'li bilan hujjatlarni berish yoki olish; c) qonuniy egasi bo'lmagan holda rasmiy hujjatlardan foydalanish, uchinchi qismida b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisabatan; c) ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan; d) jamoat arbobi, mansabdor shaxs, mas'ul davlat mansabini egallagan shaxs, xorijiy jamoat arbobi yoki xalqaro xodim tomonidan sodir etilgan bo'lsa, ushbu moddaning to'rtinchi qismida, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar a) uyushgan jinoiy guruh yoki jinoiy uyushma tomonidan b) jamoat

manfaatlariga yoki jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquqlari va manfaatlariga juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi nazarda tutilgan.

Noqonuniy migratsiya jabrlanuvchilari davlat hududiga noqonuniy kirish, bo'lish, tranzit o'tish yoki undan chiqib ketish, shuningdek, ularning noqonuniy migratsiyasini tashkil etish uchun soxta rasmiy hujjatlarga egalik qilganlik va undan foydalanganlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Gruziya Jinoyat kodeksi 344¹-moddasida Gruziya Davlat chegarasidan migrantlarni noqonuniy olib o'tish yoki (va) Gruziyada ularni noqonuniy bo'lishi sharoitlarini yaratish (ko'maklashish) uchun ham alohida javobgarlik nazarda tutilgan.

Aytish kerakki, xorijiy davlatlarning noqonuniy migratsiyaga oid javobgarlik belgilovchi jinoyatlarning belgilari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bevosita belgilanmagan. Holatga qarab, bunday qilmishlar mamlakatimizda Jinoyat kodeksi umumiy qismi normalari orqali 223-moddasida nazarda tutilgan jinoyatga ishtirokchilik sifatida baholanadi va kvalifikatsiya qilinadi.

Demak, noqonuniy migratsiya uchun javobgarlikni tartibga soluvchi normalarning tuzilishiga ko'ra, xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini uch guruhga bo'lish mumkin:

noqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri Jinoyat kodeksining mustaqil moddalarida ko'rsatilgan (*RF, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Belarus Respublikasi, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova, Gruziya, Polsha, Xitoy va boshqalar*);

noqonuniy migratsiyaga oid qilmishlar uchun bir vaqtning o'zida jinoyatning ob'ektiv tomoni belgilarining mazmuni bilan ajralib turadigan bir nechta moddalarda jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan (*RF, Tojikiston, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Litva, Estoniya, Bolgariya, AQSh va boshqalar*);

noqonuniy migratsiya uchun mustaqil javobgarlik belgilanmagan (*Germaniya, Buyuk Britaniya, Daniya, Shveysariya, Ukraina va boshqalar*). Bu mamlakatlarda faqat davlat chegarasini kesib o'tish va u bilan bog'liq qilmishlar uchun javobgarlik mavjud.

Horijiy davlatlarning jinoyat qonunida mustahkamlangan noqonuniy migratsiya uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

aksariyat xorijiy mamlakatlarda noqonuniy jinoiy migratsiya jinoyat sifatida tan olingan; ayrim davlatlarning milliy qonunchiligi xalqaro huquqiy hujjatlarni hisobga oladi va ularning davlatlarining milliy manfaatlarini qondirishga qaratilgan;

qayd etilishicha, XXI asrda noqonuniy migrantlarning ommaviy, majburiy oqimi tufayli horijiy mamlakatlarning migratsiya qoidalariga oid qonunchiligi yanada qattiqlashgan va jinoiy javobgarlik mamlakatga noqonuniy ravishda kirish, bo'lish, yashash, shuningdek, noqonuniy chiqib ketishni tashkil etish (yordam berish) uchun nazarda tutilgan;

aksariyat horijiy davlatlarning jinoiy kodekslarini tahlil qilish ularda noqonuniy migratsiyani tashkil etishning jinoyat miqyosi va chegaralarini tavsiflovchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Ular quyidagilardan iborat:

noqonuniy migratsiyani tashkil etish chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shxslarni mamlakatga qonunga xilof ravishda kirish yoki unda yashashda har qanday yordam ko'rsatishda ifodalanishi mumkin;

bu toifadagi jinoyatlar odatda g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab sodir etilishi qonunchilikda belgilangan;

noqonuniy migratsiyani tashkil etishning barcha ishtirokchilari, shu jumladan noqonuniy migrantlarning o'zlari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan;

noqonuniy migrantlarni yashirgan va ish bilan ta'minlagan ish beruvchilarga nisbatan ham jinoiy javobgarlik qo'llaniladi;

majburiy migratsiya uchun kuchaytirilgan jinoiy javobgarlik belgilangan;

noqonuniy migratsiya va u bilan bog'liq jinoyatlar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlikni preyarditsiyasi mexanizmlaridan foydalanilgan;

bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh tomonidan, xizmat mavqeidan foydalangan holda, shuningdek zo'ravonlik qo'llash, aldash yo'li bilan ushbu jinoyatni sodir etish jinoyatlarning og'irlashtiruvchi belgilari sifatida qayd qilingan;

noqonuniy migratsiyani tashkil qilish og'ir jinoyatlar qatoriga kiradi.

Xorijiy mamlakatlarning noqonuniy migratsiyani tashkil etish uchun jinoiy javobgarlikka tortishning ijobiy tajribasini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini migratsiya to'g'risidagi qonunchilikni buzish, qonunga xilof migratsiyani tashkil etish, O'zbekiston Respublikasiga chet el ishchi kuchini jalb etish va undan foydalanish tartibini buzish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qonunga xilof ravishda berish kabi jinoyat tarkiblari bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish va ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni optimallashtirish imkonini beradi.

Muhtasar aytganda, chet el jinoyat qonunidagi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashdagi o'rnini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish va amaldagi qonunchilikka joriy etish milliy xavfsizlikni ta'minlash va migrantlar huquqlarini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida, jinoyat qonunini takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, yuqorida xorijiy davlatlar qonunini tahlil qilish asosida guvohi bo'lganimizdek, migratsiya to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq bo'lgan bir qator jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanishi nafaqat asoslantirilgan, balki ushbu normalar noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash samaradorligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Шалагин А.Е. Ответственность за преступления против общественной нравственности в зарубежных странах // Вестник Казанского юридического института МВД России. - 2010. - № 1. - С. 44.

2 Уголовный кодекс Российской Федерации от 13 июня 1996 года № 63-ФЗ (с изменениями и дополнениями по состоянию на 25.12.2023 г.) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397073

3 Қозоғистон Республикасининг 2014 йил 3 июлдаги Жиноят кодекси. № 226-V (12.09.2023 йилгача булган узгартиш ва кушимчалари билан) // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

4 Уголовный Кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 25.01.2024 г.) // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065&pos=5;-106#pos=5;-106

- 5 Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21 мая 1998 года № 574 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 13.11.2023 г.) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325#pos=3397;-46
- 6 Уголовный кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-3 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.10.2023 г.) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=30414984#pos=3284;-10
- 7 Уголовный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 30 декабря 1999 года № 787-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 22.12.2023 г.) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=5;-124.
- 8 <http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=8059&lang=rus>
- 9 Молдова Республикасининг 2002 йил 18 апрелдаги Жиноят кодекси. № 985-XV (29.07.2022 йилгача булган узгартиш ва кушимчалари билан) // https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30394923&pos=514;-30#pos=514;-30
- 10 Грузия 1999 йил 22 июлдаги Жиноят кодекси // <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=254>
- 11 Бундай қилмишлар учун Тожикистон Республикаси Жиноят кодексининг 355(1) - моддасида жиноий жавобгарлик белгиланган.

INNOVATIVE
ACADEMY